



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th June 2026

Website: <https://econferencia.com>

MAQOLLARDA GRAMMATIK SON KATEGORIYASINING IFODALANISHI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARI MISOLIDA)

Usmanov Sunnatulla Buriboyevich

Samarqand davlat universiteti katta o‘qituvchisi

usmonovsunnat@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillari paremiologik birliklari asosida ot so‘z turkumiga xos son kategoriyasining ifodalanish xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda birlik va ko‘plik shakllarining maqollar tarkibidagi grammatik-semantik funksiyalari, generik birlik, semantik kollektivlik, abstraktlashuv hamda umumlashtirish kabi hodisalar lingvistik nuqtai nazardan yoritiladi. O‘zbek maqollarida birlik shaklining ko‘proq kollektiv va tipiklashtiruvchi semantikani ifodalashi, ingliz maqollarida esa grammatik formalashuv hamda abstrakt-falsafiy umumlashtirishning ustuvorligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari son kategoriyasining paremiologik birliklarda nafaqat morfologik, balki lingvokognitiv va lingvomadaniy vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: son kategoriyasi, birlik son, ko‘plik son, paremiologiya, maqol, generik birlik, semantik kollektivlik, grammatik kategoriya, qiyosiy-tipologik tahlil, lingvosemantika, lingvokognitiv yondashuv, abstraktlashuv, umumlashtirish, o‘zbek tili, ingliz tili.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th June 2026

Website: <https://econferencia.com>

Kirish

Paremiologik birliklar, xususan maqollar xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri hamda lingvomadaniy qarashlarini o'zida mujassamlashtiruvchi barqaror sintaktik-semantik strukturalar hisoblanadi. Maqollar til tizimining barcha sathlariga oid birliklarning funksional imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim manbalardan biri bo'lib, ularda grammatik kategoriyalar nafaqat formal, balki semantik-pragmatik vazifalarni ham bajaradi. Shunday grammatik kategoriyalardan biri otlarga xos son kategoriyasidir.

Tilshunoslikda son kategoriyasi predmetning miqdoriy tavsifini ifodalovchi morfologik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Mazkur kategoriya birlik va ko'plik oppozitsiyasi asosida shakllanadi hamda tillarning tipologik xususiyatiga ko'ra turlicha namoyon bo'ladi. Agglyutinativ tizimga mansub o'zbek tilida ko'plik asosan "-lar" affiksi orqali ifodalansa, analitik til xususiyatlariga ega ingliz tilida "-s/-es" morfemalari asosiy grammatik ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi. Biroq paremiologik birliklarda son kategoriyasi faqat grammatik miqdorni emas, balki umumlashtirish, kollektivlik, generiklik, tipiklashtirish hamda obrazlilik kabi semantik-pragmatik ma'nolarni ham yuzaga chiqaradi.

O'zbek va ingliz tillari maqollarida son kategoriyasining ifodalanishini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish ikki tilning grammatik tafakkuri hamda lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

O'zbek paremiologik tizimida birlik shakli ko'pincha konkret predmetni emas, balki umumlashgan tipik obrazni ifodalash uchun qo'llanadi. Bunday hodisa tilshunoslikda **generik birlik** termini bilan izohlanadi. Generik birlikda otning birlik shakli alohida predmetga emas, balki muayyan sinf, xarakter yoki ijtimoiy tipga nisbatan qo'llanadi.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th June 2026

Website: <https://econferencia.com>

Masalan:

- “Tegirmonda tug‘ilgan sichqonning fe’li keng.”
- “Eshak bo‘lsin, xayrli bo‘lsin.”
- “Xasisning pulidan yulduz yaqin.”
- “Xayrli qo‘l qayrilmas.”

Mazkur paremiologik birliklarda “sichqon”, “eshak”, “xasis”, “qo‘l” leksemalari grammatik jihatdan birlik shaklida qo‘llangan bo‘lsa-da, ular konkret referentni emas, balki umumlashgan semantik tipni ifodalaydi. Xususan, “xasis” leksemasi individual shaxsni emas, baxillik xususiyatiga ega insonlar sinfini bildiradi. Shu tariqa birlik shakli paremiologik matnda tipiklashtiruvchi va umumlashtiruvchi funksiyani bajaradi.

1-jadval O‘zbek maqollarida birlik sonning semantik-funksional xususiyatlari

Maqol	Birlik shaklidagi ot	Grammatik ma’nosi	Semantik-funksional vazifa
Tegirmonda tug‘ilgan sichqonning fe’li keng	sichqon	birlik	generik umumlashtirish
Eshak bo‘lsin, xayrli bo‘lsin	eshak	birlik	tipik obraz yaratish
Xasisning pulidan yulduz yaqin	xasis	birlik	xarakter semantikasi
Xayrli qo‘l qayrilmas	qo‘l	birlik	ramziy-metaforik ma’no
Uying tor bo‘lsa ham, ko‘ngling keng bo‘lsin	uy, ko‘ngil	birlik	mavhum tushunchani ifodalash



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th June 2026

Website: <https://econferencia.com>

advaldan ko‘rinadiki, birlik son shakli o‘zbek maqollarida nominativ funksiyadan tashqari, gnoseologik va aksiologik vazifalarni ham bajaradi. Ya’ni birlik shakli orqali xalqning hayotiy tajribasi umumlashtiriladi hamda tipiklashtirilgan obrazlar yaratiladi.

Ingliz paremiologik tizimida ham birlik shakli yuqori funksional faollikka ega. Ayniqsa, abstrakt tushunchalar va falsafiy konseptlarni ifodalashda birlik son asosiy grammatik vosita sifatida xizmat qiladi.

Masalan:

- “Life is a journey, not a destination.”
- “Every cloud has a silver lining.”
- “The grass is always greener on the other side.”
- “Rome wasn’t built in a day.”

Mazkur paremiologik birliklarda “life”, “journey”, “cloud”, “grass”, “day” otlari morfologik jihatdan birlik shaklida qo‘llangan bo‘lsa-da, ular universallashtirgan hayotiy tajriba va konseptual umumlashmani ifodalaydi. Xususan, “life” leksemasi individual biologik mavjudlikni emas, insoniyat tajribasining umumiy modelini anglatadi. “Cloud” esa metaforik transfer asosida muammo yoki salbiy vaziyat konseptini ifodalovchi obraz sifatida qo‘llangan.

2-jadval Ingliz maqollarida birlik sonning funksional xususiyatlari

Maqol	Birlik shaklidagi ot	Semantik vazifa
Life is a journey, not a destination	life, journey	falsafiy umumlashtirish
Every cloud has a silver lining	cloud	metaforik konseptualizatsiya
The grass is always greener on the other side	grass	qiyosiy-obrazli tasvir
Rome wasn’t built in a day	Rome, day	temporal konsept
Life is what you make it	life	individual tajribaning universallashtirishi



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th June 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi asosan “-lar” affiksi orqali ifodalansa-da, maqollarda ko‘plik ma’nosi ko‘pincha semantik kollektivlik vositasida yuzaga chiqadi. Bunda grammatik birlik shakli kollektiv referensiyani anglatishi mumkin.

Masalan:

- “Yaxshi topsa, elga yoyar.”
- “Tikadigan beka bo‘lsin, kiyadigan cho‘ri bo‘lsin.”
- “O‘zi yemas, itga bermas.”
- “Qaynananiki – o‘rtada, kelinniki – xaltada.”

Bu maqollarda “el”, “beka”, “cho‘ri”, “it”, “qaynana”, “kelin” leksemalari grammatik birlikda qo‘llangan bo‘lsa-da, semantik jihatdan umumlashgan ko‘plikni ifodalaydi. Ayniqsa, “el” leksemasi kollektiv semantikaning tipik ko‘rinishi hisoblanadi.

3-jadval O‘zbek maqollarida ko‘plik ma’nosining ifodalanish modellari

Maqol	Ko‘plik ma’nosini ifodalovchi birlik	Ifodalanish tipi
Yaxshi topsa, elga yoyar	el	kollektiv semantika
Tikadigan beka bo‘lsin...	beka, cho‘ri	generik birlik
O‘zi yemas, itga bermas	it	umumlashgan tip
Qaynananiki — o‘rtada...	qaynana, kelin	ijtimoiy tipologiya
Xasis hayosiz bo‘lar	xasis	xarakterologik umumlashma

Mazkur holat o‘zbek tilining lingvomadaniy xususiyati sifatida kollektiv tafakkur va umumlashtiruvchi semantikaning ustuvorligini ko‘rsatadi.

Ingliz maqollarida ko‘plik kategoriyasi grammatik jihatdan ancha qat’iy formalashgan bo‘lib, asosan “-s/-es” morfemalari orqali ifodalanadi.



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th June 2026

Website: <https://econferencia.com>

Masalan:

- “Actions speak louder than words.”
- “Don’t count your chickens before they hatch.”
- “Your actions and choices shape your own life.”

Mazkur maqollarda “actions”, “words”, “chickens”, “choices” birliklari morfologik ko‘plik shaklida qo‘llanib, umumiy hayotiy tajriba va sabab-oqibat munosabatlarini ifodalaydi.

4-jadval Ingliz maqollarida ko‘plik kategoriyasining funksional-semantik modeli

Maqol	Ko‘plik shakli	Grammatik vosita	Semantik vazifa
Actions speak louder than words	actions, words	-s	aksiologik umumlashma
Don’t count your chickens...	chickens	-s	predmetlar ko‘pligi
Actions and choices shape...	actions, choices	-s	hayotiy qonuniyat
What goes around comes around	implicit plurality	semantik ko‘plik	natijaviylik
You reap what you sow	harakatlar majmui	abstrakt ko‘plik	sabab-oqibat modeli

Qiyosiy-tipologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz maqollarida son kategoriyasi grammatik jihatdan o‘xshash vazifani bajarsa-da, uning semantik va lingvomadaniy funksiyalarida muayyan tafovutlar mavjud. O‘zbek maqollarida birlik va ko‘plik shakllari ko‘proq xalqona tafakkur, kollektiv dunyoqarash hamda obrazli umumlashtirishni ifodalashga xizmat qiladi. Bunda grammatik birlik shakli orqali ham umumlashgan ko‘plik yoki kollektiv ma’no



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th June 2026

Website: <https://econferencia.com>

yuzaga chiqishi kuzatiladi. Ingliz maqollarida esa son kategoriyasi aniq morfologik vositalar orqali ifodalanib, grammatik formalashuvning ustuvorligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ingliz paremiologik birliklarida birlik shakli abstrakt-falsafiy mazmuni ifodalashda faol qo‘llanadi.

Har ikki tilda ham son kategoriyasi maqol semantikasining shakllanishida muhim komponent hisoblanadi. U nafaqat predmetning miqdoriy munosabatini ifodalovchi grammatik kategoriya sifatida, balki xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri va lingvomadaniy qarashlarini aks ettiruvchi semantik-pragmatik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan son kategoriyasi paremiologik birliklarning mazmuniy va uslubiy strukturasi shakllantiruvchi muhim til hodisalaridan biri hisoblanadi.

5-jadval O‘zbek va ingliz maqollarida son kategoriyasining qiyosiy tavsifi

Qiyosiy belgi	O‘zbek tili	Ingliz tili
Ko‘plikning asosiy grammatik vositasi	-lar	-s/-es
Generik birlikning funktsionalligi	juda faol	faol
Semantik kollektivlik	yuqori darajada rivojlangan	nisbatan cheklangan
Grammatik formalashuv	nisbatan erkin	qat’iy
Abstrakt birliklarning qo‘llanishi	mavjud	juda faol
Paremiologik vazifa	umumlashtirish va tipiklashtirish	falsafiy-aksiologik xulosa

Xulosa

Paremiologik birliklarda son kategoriyasi faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki xalq tafakkurining lingvokognitiv modeli sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek va ingliz maqollarining qiyosiy-tipologik tahlili birlik shaklining har ikki tilda generik umumlashtirish, tipiklashtirish hamda konseptual obraz yaratish



World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26th June 2026

Website: <https://econferencia.com>

funksiyasini bajarishini ko‘rsatadi. Ko‘plik shakli esa kollektiv tajriba, aksiologik xulosa va sabab-oqibat munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

O‘zbek paremiologik tizimida semantik kollektivlik va generik birlikning ustuvorligi kuzatilsa, ingliz tilida grammatik formalashuv va abstrakt-falsafiy konseptuallashuv yetakchi o‘rin egallaydi. Shu jihatdan son kategoriyasi maqollarda nafaqat morfologik birlik, balki milliy tafakkur va lingvomadaniy mentalitetning verbal ifodasi sifatida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. Изд.2е,стереотипное. – М.: Едиториал УРСС, 2002. – С. 35.
2. Хабибуллина Э.Х. Системно-функциональный статус абстрактных субстантивов множественного числа во французском, русском и татарском языках: Дисс. ... д-ра филол.наук. – Чебоксары, 2002. – С. 75.
3. Печеник О.В. Proverbs and sayings. – ШИК с. Среднебелая. – 2019.– 26 с.
4. Гварджаладзе И.С., Гильбертсон А.Л., Кочинашвили Т.Г. 500 английских пословиц и поговорок. – Москва : Изд-во лит. на иностр. яз., 1959. – 35 с.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 455 b.
6. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H.,Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: FTM, 2009. – 591 b.
7. T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005 – 512 b.